

“EKOLOGIK XABARDORLIKNI OSHIRISHDA MEDIA SAVODXONLIGINING O‘RNI”

Abdunazarov Lutfillo Mamanovich

Qo‘qon universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

Axmadjonova Feruzaxon Bahtiyorjon qizi

Qo‘qon universiteti 3-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekologik xabardorlikni oshirish jarayonida media savodxonlikning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Hozirgi axborot asrida ekologik muammolar haqidagi ma’lumotlar ko‘plab ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalmoqda. Shu bois, insonlarning media savodxonligi darajasi ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Media savodxon shaxs ekologik mavzudagi axborotlarni tanqidiy tahlil qilib, ishonchli manbalarni ajrata oladi hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha ijobiy g‘oyalarni jamiyatga yetkazadi. Tadqiqotda media savodxonlikning ekologik axborotlarni to‘g‘ri qabul qilish, ekotarg‘ibot ishlarini samarali tashkil etish va fuqarolarning ekologik faolligini oshirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, ekologik va media ta’limni integratsiyalash zarurati ham asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik xabardorlik, media savodxonlik, ekologik madaniyat, axborot, ijtimoiy tarmoqlar, tanqidiy fikrlash, axborot texnologiyalari, xalqaro hamkorlik, iqlim o‘zgarishi, ekologik inqiroz, havoning ifloslanishi.

KIRISH

XXI asrda insoniyat duch kelayotgan eng dolzarb muammolardan biri — bu ekologik inqirozdir. Iqlim o‘zgarishi, havoning ifloslanishi, suv tanqisligi, chiqindilar muammosi va biologik xilma-xillikning kamayishi kabi holatlar inson hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu jarayonlarni bartaraf etish yoki yumshatish uchun nafaqat davlat siyosati va xalqaro hamkorlik, balki har bir fuqaroning ekologik xabardorligi va mas’uliyatli munosabati muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ekologik xabardorlikni oshirishning samarali va foydali vositalaridan biri bu — media savodxonlikdir. Chunki axborot texnologiyalari taraqqiyoti natijasida insonlar atrof-muhit haqidagi ma’lumotlarni asosan ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali oladilar. Shu sababli, ekologik masalalarda to‘g‘ri, ishonchli va faktlarga asoslangan ma’lumotni tanlay olish, uni tahlil qilish va ongli xulosa chiqarish bugungi kunda har bir shaxs uchun zarur ko‘nikmaga aylangan.

Media savodxonlik ekologik madaniyatni shakllantirish, ekologik qadriyatlarni targ‘ib etish hamda soxta yoki manipulyativ axborotlarning salbiy ta’sirini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan, mazkur mavzu doirasida ekologik xabardorlikni oshirish jarayonida media savodxonlikning o‘rni, ahamiyati va ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Media savodxonlikning ekologiya bilan aloqa qilishi har bir shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishning kamolotga yetgan nuqtasidir: har bir shaxs media

savodxonligini oshirgan holda tabiat bilan bog'lanishi oqibatida o'zini ekologiya bilan chambarchas bog'liqligini anglashga olib keladi. Media bilan chambarchas bog'langan ekologik madaniyat tamoyillarini yaratishda uch bog'liqlik: inson- ekologiya – media savodxonlik o'rtasidagi aloqa zarurati tabiatga bo'lgan munosabatini yanada keskin tarzda ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkin. Media orqali kuzatish bu tabiatni hissiy bilish usulidir. Tabiat, atrof-muhit bilan bevosita aloqani ta'minlaydi. Bu yo'nalishda E. G'. Azizxo'jayev, M. X. Xolbekov, N. Yo'ldosheva, S. Ismoilova, A. Jo'rayev, Sh. Yusupov, M. Karimov, D. Xodjayev G. Qodirova, D. Qodirova, N. Nuriddinov kabi olimlar tabiatni tushunishning muhim usuli sifatida media savodxonlikga katta ahamiyat berishgan.

Natijalar

Ushbu tadqiqotda ekologik xabardorlikni oshirishdagi media savodxonlikning o'rnini aniqlash maqsad qilingan.

Ushbu taqdiqot davomida aholining ekologik xabardorlik darajasi hamda media savodxonlik ko'nikmalarining bu jarayondagi o'rnini o'rganildi. Olingan ma'lumotlar quyidagi asosiy natijalarni ko'rsatdi:

1. Axborot manbalaridan foydalanish darajasi anchagina yuqori.

Respondentlarning 78 foizi ekologik mavzularda ma'lumot olish uchun internet va ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qiladi, 52 foizi esa televizion gazeta maqolalaridan foydalanadi. Bu shuni ko'rsatadiki, media vositalari ekologik xabardorlikni asosiy kanal hisoblanadi.

2. Media savodxonlik va ekologik xabardorlik o'rtasidagi bog'liqlik yuqori ko'rsatkichga ega.

O'rganilgan guruhda media savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan respondentlar ekologik muammolar, chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitni himoya qilish masalalariga nisbatan sezilarli darajada xabardor. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, media savodxonlik bilan ekologik xabardorlik o'rtasida ijobiy va kuchli bog'liqlik mavjud. Media orqali ekologik ma'lumot oladigan respondentlar orasida chiqindilarni saralash, energiyani tejash va ekologik loyihalarda ishtirok etish bundan tashqari atrof muhitni sarab-avaylash kabi amaliy tadbirlarni bajarish darajasi ham yuqori ekanligi kuzatildi. Masalan, media savodxonligi yuqori bo'lgan respondentlarning 64 foizi muntazam ravishda ekologik tashabbuslarda qatnashadi.

3. Ommaviy axborot vositalari ekologik xulq-atvorni shakllantirishda kuchli ta'sirga ega.

Tadqiqotda respondentlarning katta qismi ekologik mavzudagi videoroliklar, ijtimoiy tarmoq postlari va hujjatli filmlar ularda musbat ta'sir uyg'otganini bildirgan. Ayniqsa qisqa videolavhalar (Reels, Shorts) va infografikalar ekologik muammolarni tez va sodda tushuntirishi bilan samarali bo'lmoqda.

4. Noto'g'ri ekologik ma'lumotlar bu muammo.

Tadqiqot davomida ko'plab respondentlar ijtimoiy tarmoqlarda tabiatga oid asossiz ma'lumotlar va yolg'on kompaniyalarga duch kelishini aytgan. Bu esa media savodxonlikning yetishmasligi ekologik xatti-harakatlarda xatolarga olib kelishi mumkinligini va insonlar ongida noto'g'ri ma'lumotlar uyg'otishini anglatadi.

5. Media savodxonlik ekologik harakatga undashda motivator sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotda media orqali ekologik chaqiriqlar (aksiyalar, turli tashabbuslar, flashmoblar, daraxt ekish tashabbuslari) orqali aholining faol ishtirok etish darajasi oshgani kuzatildi. Bundan tashqari media orqali turli va to'g'ri ma'lumotlar yetkazilganligiga ham erishilgan. Media savodxonligi yuqori bo'lgan insonlar bu chaqiriqlarning asosiy maqsadini to'g'ri tushunib ularda ongli ravishda faol ishtirok etgan.

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, media savodxonlik ekologik xabardorlikni oshirishda strategik muhim imol hisoblanadi.

Zamonaviy mediatizatsiya shariatida ekologik kontentni to'g'ri qabul qilish, uni tanqidiy tahlil qilish hamda amaliy faoliyatga aylantirish jarayoni aynan media savodxonlik ko'nikmalariga bevosita bog'liq.

Media savodxonligi yuqori bo'lgan shaxslar atrof-muhit masalalarini yanada ongliroq qabul qiladi, ekologik axborotni tahlil qiladi va amaliy choralar ko'radi. Bu natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan hamohang: bir qancha ilmiy ishlar, xususan, UNESCO va boshqa ekologik tashkilotlar tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, media vositalari orqali ta'lim va axborot olish ekologik bilim va xabardorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning rolini alohida ta'kidlash mumkin, chunki ular tezkor axborot tarqatish va yoshlar orasida ekologik tashabbuslarni rivojlantirishda samarali platforma hisoblanadi.

Shuningdek, natijalar media savodxonlikni oshirishga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Masalan, foydalanuvchilarga ishonchli ekologik manbalarni tanlash va soxta ma'lumotlardan himoyalaniish bo'yicha ko'nikmalar berish xabardorlikni yanada kuchaytiradi.

Bundan tashqari media vositalari orqali ta'limni kuchaytirish, ekologik targ'ibot sifatini oshirish va noto'g'ri axborotlarga qarshi kurashish ekologik madaniyatni rivojlantirishda asosiy yo'nalish sifatida belgilanishi lozim.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, media savodxonlik ekologik ongni shakllantirishda faqat axborot manbasi emas, balki ekologik xatti-harakatlarni rag'batlantiruvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, media savodxonlik ekologik xabardorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Respondentlar orasida media vositalaridan samarali foydalanish ekologik bilimlarni oshirish, atrof-muhit masalalariga e'tibor va amaliy ekologik harakatlarni rag'batlantirish bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlangan.

Media savodxonligi yuqori bo'lgan shaxslar ekologik muammolarni tushunishda, chiqindilarni kamaytirish va energiya tejash kabi kundalik ekologik faoliyatlarni bajarishda faolroq bo'ladilar.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar va ishonchli axborot manbalaridan foydalanish ekologik xabardorlikni tez va samarali oshirish imkonini beradi. Shu asosda tavsiya qilinadi: ekologik xabardorlikni rivojlantirish bo'yicha dasturlar media savodxonlikni oshirish bilan birgalikda olib borilishi kerak.

Bu nafaqat ekologik bilimni kuchaytiradi, balki insonlarning ekologik mas'uliyatini ham oshiradi, amaliy harakatlarni rag'batlantiradi.

Umuman olganda, media savodxonlik ekologik xabardorlikni shakllantirish va ekologik ongni rivojlantirishda samarali vosita sifatida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva, D. (2021). Media savodxonlik asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Karimov, A. (2020). "Ekologik madaniyat va uni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari". Ekologiya va hayot, №3, 45–52.
3. Qosimova, M. (2019). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ekologik ta'lim. Toshkent: "Fan va texnologiya".
4. Potter, W. J. (2022). Media Literacy. SAGE Publications.
5. UNESCO. (2018). Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. Paris: UNESCO Publishing.
6. To'ychiyev, B. (2022). "OAVning ekologik xabardorlikni oshirishdagi imkoniyatlari". O'zbekiston OAV jurnali, №2, 17–25.
7. McQuail, D. (2020). McQuail's Mass Communication Theory. London: SAGE.
8. World Health Organization (WHO). (2021). Environmental Health and Public Awareness. Geneva: WHO Press.
9. Sharipova, N. (2023). "Ekologik muammolar yoritilishida media savodxonlikning ahamiyati". Ta'lim va innovatsiyalar, №1, 60–66.
10. United Nations Environment Programme (UNEP). (2020). Environmental Communication and Awareness Guidelines. Nairobi: UNEP.